XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

2022 - yil 4 - oktabr VI-59-96-5-77-K/22 Xatirchi tuman hokimligi

Xatirchi tumani “Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘inlarini tuzish to‘g‘risida

Xatirchi tumani “Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yangi mahalla fuqarolar yig‘inlarini tuzish to‘g‘risida “Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inining 2021-yil 16-martdagi iltimosnomalari, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy hokimiyat to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli qaroriga muvofiq Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashi 2021-yil 24-iyuldagi VI -35-16-5-77-K/21-sonli qaroriga asosan “Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘iniga “Yangi O‘zbekiston” nomi Xatirchi tuman Davlat xizmatlari agentligi elektron bazasidan o‘tmaganligi sababli tumandagi “Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga yangi nom berilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligi ekspert komissmiyasining xulosasiga asosan yangi tuzilayotgan mahallaga “Xonaqa” nomi berilsin.

3. Bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan mahalla fuqarolar yig‘inlarining:

yer maydoni 1-ilovaga muvofiq;

aholi soni 2-ilovaga muvofiq;

chegaralari 3-ilovaga muvofiq;

“Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida tashkil etilayotgan “Xonaqa” mahalla fuqarolar yig‘inining chegara chizmasi tasdiqlansin.

4. Tuman hokimi o‘rinbosarlari (Q.Farmonov, J.Rashidov), tuman Statistika

bo‘limi (A.Husanov), tuman Davlat xizmatlari markazi (J.Shodiyev), Davlat kadastirlari palatasi Navoiy viloyat boshqarmasi Xatirchi tuman filiali boshlig‘i (A.Shodiyev) hamda boshqa tegishli mutasaddilar bilan birgalikda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

5. Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari (I.Muxammadiyev), tuman Ichki ishlar bo‘limi (O.Ro‘zimurodov), tuman Soliq inspeksiyasi (A.Ro‘zimurodov), tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (I.Muxammadiyev)lar bilan birgalikda:

mazkur qaror bilan yangi tuzilgan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hududida yashovchi aholining fuqarolik pasportiga o‘zgartirish kiritish;

- yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘iniga dumaloq muhr va tamg‘a yasash;
- mahalla fuqarolar yig‘iniga INN raqami ochish uchun ruxsatnoma berish;
- mazkur hudud aks ettirilgan yo‘l belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini tashkiliy ravishda amalga oshirish choralarini ko‘rsin.

6. Tuman hokimi o‘rinbosarlari (I.Muxammadiyev, Q.Farmonov) bilan birgalikda:

- yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘iniga nomi yozilgan ko‘rsatkich, belgilar va peshlavhalarni zamonaviy dezayn asosida o‘rnatish;

- yangidan tuzilgan mahalla fuqarolar yig‘inini ma’muriy bino va kerakli jihozlar bilan ta’minlash vazifasi topshirilsin.

7. Tuman hokimligi Moliya bo‘limi (J.Qahhorov) yangi mahalla fuqarolar yig‘inlari tashkil qilinayotganligi munosabati bilan mahalla fuqarolar yig‘inlari raisi, raisning obodonlashtirish, tomorqa va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha hamda oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma’naviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimiga qo‘shimcha shtat birliklari kiritsin.

8. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (O.Bekpulatov), tuman hokimligi tashkiliy kadrlar guruhi (M.Avazov)ga yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inida O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonun talablari asosida mahalla hududida, ko‘chalarda vakillar yig‘ilishlarini o‘tkazib, saylov yig‘ilishiga

vakillar normasi asosida vakillar saylash, mahalla fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli)ni saylovini o‘tkazish uchun kamida 3 nafardan kadrlar zahirasini shakllantirib, tuman hokimiga taklif kiritish vazifasi yuklatilsin.

9. Ushbu qarorni “Xatirchi hayoti” gazetasi tahririyati (I.Xolboyev) mazkur qarorni gazetada rasmiy e’lon qilsin hamda tuman hokimligi Axborot xizmati (N.Nomozov) hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

10. Ushbu qaror rasmiy nashrda e’lon qilingan kundan kuchga kirishi belgilansin.

11. Ushbu qarorning nazoart qilish Xalq deputatlari Xatirchi tumani Kengashining Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (M.Saidaxmedova) hamda tuman hokimi o‘rinbosari, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi boshlig‘i (O.Bekpulatov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashi raisi **S.Nizamov**

Xalq deputatlari Xatirchi tuman
Kengashining
2022 yil 4 oktabrdagi
VI-59-96-5-77-K/22-son qaroriga
1-ilova

“Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inlarining bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining yer maydonlari

1.	“Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy yer maydoni (ga)	“Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan yer maydoni (ga)	Yangi tashkil etilayotgan “Xonaqa” mahalla fuqarolar yig‘inining yer maydoni (ga)
	1290,31	1136,11	154,2
2.	“Uyshun” mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy yer maydoni (ga)	“Uyshun” mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan yer maydoni (ga)	Yangi tashkil etilayotgan “Xonaqa” mahalla fuqarolar yig‘inining yer maydoni (ga)
	715,46	694,26	21,2

Xalq deputatlari Xatirchi tuman
Kengashining
2022 yil 4 oktabrdagi
VI-59-96-5-77-K/22-son qaroriga
2-ilova

“Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inlarining bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining aholi soni

1.	“Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy aholi soni (nafar)	“Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan aholi soni (nafar)	Yangi tashkil etilayotgan “Xonaqa” mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)
	4410	2842	1568
2.	“Uyshun” mahalla fuqarolar yig‘inining umumiy aholi soni (nafar)	“Uyshun” mahalla fuqarolar yig‘inining qolgan aholi soni (nafar)	Yangi tashkil etilayotgan “Xonaqa” mahalla fuqarolar yig‘inining aholi soni (nafar)
	2543	2387	156

Xalq deputatlari Xatirchi tuman
Kengashining
2022 yil 4 oktabrdagi
VI-59-96-5-77-K/22-son qaroriga
3-ilova

“Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inining bo‘linadigan va yangi tashkil etiladigan fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining chegaralari

1.	“Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	“Chag‘atoy” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	Yangi tashkil etilayotgan “Xonaqa” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari
	1. Xonaqa qishlog‘i 2. Chag‘atoy qishlog‘i 3. Xo‘jaobod qishlog‘i 4. Do‘stlik qishlog‘i	1. Chag‘atoy qishlog‘i 2. Xo‘jaobod qishlog‘i 3. Do‘stlik qishlog‘i	1. Xonaqa qishlog‘i
2.	“Uyshun” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	“Uyshun” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari	Yangi tashkil etilayotgan “Xonaqa” mahalla fuqarolar yig‘inining chegaralari
	1. Guliston qishlog‘i 2. Yuqori Uyshun qishlog‘i 3. Quyi Uyshun qishlog‘i 4. Namunali ko‘cha 5. Amir Temur ko‘chasi	1. Guliston qishlog‘i 2. Yuqori Uyshun qishlog‘i 3. Quyi Uyshun qishlog‘i	1. Namunali ko‘cha 2. Amir Temur ko‘chasi